

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

manbalar asosidagi tahlili.....	347
G.Sh.Shaydullayeva	
Turon sivilizatsiyasi aholisining ijtimoiy holatiga madaniy aloqalarning ta'siri.....	353
I.S.Aslonov	
O'zbekiston SSRda 1960–1980-yillarda qishloq xo'jaligi boshqaruvida byurokratik muammolar va davlat mulkini talon-taroj qilish holatlari.....	358
X.Burxanov	
Raqamli jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmlari	362
N.R.G'ulomova	
Ziyorat turizmi: uning tarixiy-tadrijiy rivojlanishi va o'ziga xos xususiyatlari.....	367
Sh.F.Allanazarov	
Komil Xorazmiy asarlarida ijtimoiy-iqtisodiy hayot tahlili.....	380
A.T.Toshmamatov	
O'zbek va ukrain xalqlari madaniy uyg'unligining tarixiy namoyasi: Xasanovlar oilasi misolida	380
Sh.A.Mirzamidinova	
Ashurali Zohiriyning shaxsiyati, faoliyati va merosi.....	384
O.B.Abdunosirova	
Amir Temur va Temuriylar davrida pul munosabatlari	390
M.X.Muzaffarov	
Vengriya va Turkiy dunyo: tarixiy bog'lanish va aloqalari.....	393
S.F.Norbekov	
Sharqiy Slavyan diasporasining Turkistondagi madaniy va ma'rifiy hayoti (1918–1924 yy.).....	398

ILMIY AXBOROT

I.T.Boltaboev	
Ijtimoiy adolat konsepsiyasining zamonaviy falsafiy talqinlari.....	409
I.S.Aslonov	
O'zbekiston SSRda 1945–1980 yillarda sug'orish va melioratsiya tizimining rivojlanishi	413
N.M.Axmadiyev	
Yangi O'zbekistonda kelesajak avlod tarbiyasiga gerontologik moyiyatini yanada rivojlantirish.....	417
B.X.Karimov	
Ongni boshqarish falsafasi hamda globallashuv sharoitida inson tafakkuri barqarorligini ta'minlashning zamonaviy konsepsiyasi	420
E.X.Zoyirov	
Ya'qub Charxiy ta'limotida borliq nazariyasi.	425
Sh.T.Abbosova	
Buyuk ipak yo'lida ilm-fan va madaniy muloqot rivoji.....	431
Sh.N.Niyozova	
Vatanparvarlikning ma'naviy-falsafiy mohiyati va shaxsning ijtimoiy-axloqiy yetukligi.....	434
Sh.X.Matyobubova	
Xorazm vohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va ularning Yangi O'zbekistonga ta'siri.....	438
R.D.Dehqonov	
Teatr san'atining yoshlar ruhiy-axloqiy rivojlanishiga ta'siri	442
Z.T.Tursunboyev	
O'zbekistonda oilaviy zo'ravonlikning oldini olishda konformizm omilining ahamiyati	446
R.D.Dehqonov	
Yangi O'zbekistonda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda teatr san'atining o'rni.....	451
Z.T.Tursunboyev	
“Tazyiq va zo'ravonlik” tushunchalari: turlari va oilada oldini olish mexanizmlari	455
N.T.Xolikov	
Globalashuv sharoitida egoistik tafakkur shakllanishini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari.....	459
Sh.A.Rasulova	
Harakatlar strtegiyasidan Yangi O'zbekistongacha: xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy mavqeini mustahkamlanishi	462
A.A.Aloxunov	



UO‘K: 37.018:94(575.1)(092)

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA YILLARIDA TA'LIM TIZIMINING IJTIMOY-IQTISODIY SHAROITLARGA MOSLASHUVI (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)**АДАПТАЦИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ К СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИМ УСЛОВИЯМ В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ (НА ПРИМЕРЕ РЕГИОНА НАМАНГАН)****ADAPTATION OF THE EDUCATION SYSTEM TO SOCIO-ECONOMIC CONDITIONS DURING THE YEARS OF WORLD WAR II (ON THE EXAMPLE OF NAMANGAN REGION)****Xasanov Bunyod Kazakjanovich**

University of Business and Science “Ijtimoiy fanlar” kafedrasida katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida Namangan viloyati xalq maorifi tizimining faoliyati, savodsizlikni tugatish kurslari, frontga harbiy kadrlar tayyorlash, maktab o'quvchilarining davomati, ta'lim tizimidagi ijobiy va salbiy jihatlar birlamchi hujjatlar tahlili asosida yoritilgan.

Аннотация

В статье на основе первичных материалов анализируются деятельность системы народного образования Наманганской области в годы Второй мировой войны, курсы по ликвидации неграмотности, подготовка военных кадров для фронта, посещаемость школьников, а также положительные и отрицательные стороны системы образования.

Abstract

In this article, the activities of the people's education system of the Namangan region during the Second World War, the courses to eliminate illiteracy, the training of military personnel, the attendance of school students, the positive and negative aspects of the educational system are discussed.

Kalit so'zlar: Savodsizlikni tugatish kurslari, “kultarmiyachi”, Namangan viloyati, front, xalq maorifi, qisqa kurslar, o'qituvchi, maktab, harbiy ta'lim.

Ключевые слова: Курсы ликвидации неграмотности, “култармец”, Наманганская область, фронт, народное образование, краткосрочные курсы, учитель, школа, военное образование.

Key words: Courses to end illiteracy, Cultarmist, Namangan region, front, public education, short courses, teacher, school, military training.

KIRISH

Ikkinchi jahon urushi O'zbekiston SSR xalq ta'limini ham og'ir ahvolga solib qo'ydi. Urush tufayli jamiyatning barcha sohalarini qamrab olgan moddiy va maishiy qiyinchiliklar xalq ta'limi xodimlariga ham jiddiy zarar etkazdi. Tizimga mablag' ajratish bu yillarda ham qoldiq tamoyilga aylandi. O'quv binolarining kamligi, mavjud binolarning ta'mirtalabligi, o'qituvchi, kitob va ta'lim resurslarining etishmasligi moliyaviy taqchillikka borib taqaldi. Shu bilan birgalikda, xalq ta'limi va madaniy idoralar oldiga front bilan bog'liq bir qator vazifalar qo'yildi. Jumladan, ta'lim tizimi xodimlariga qishloq xo'jalik sohalarida ishlash, O'zbekistonga ko'chirib keltirilgan zavodlarni ishchilar bilan ta'minlash, kirill alifbosiga o'tilgani sababli aholi orasida yuzaga kelgan “savodsizlik”ni tugatish, frontga jo'natilayotgan askarlarni rus tilida muloqot ko'nikmalarini shakllantirish, aholi va askarlar orasida g'oyaviy-siyosiy targ'ibot olib borish hamda ularning ruhiyatini ko'tarish kabi vazifalar qo'yilgan edi.

Bu davrda O'zbekiston SSR ta'lim tizimi maktabgacha ta'lim, maktab ta'limi, fabrika-zavod ta'limi (FZT), oliy ta'lim va savodsizlikni tugatish kurslariga bo'lingan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ikkinchi jahon urushiga respublikaning iqtisodiy, siyosiy, madaniy va harbiy tomondan qo'shgan hissasi va o'zbekistonliklarning frontdagi ishtiroki masalasiga oid tadqiqotlar bir qator olimlar, xususan, sovet davrida F.Vavilov, T.Golyanova, E.Abduraxmanov, V.Yefimov, S.Ismailova, R.Melikulov, A.Safayev, R.Xalikovalar o'rgangan bo'lsa, mustaqillik yillarida R.Shamsutdinov, X.Azimov, Z.Xaydarov, Z.Ishonxodjayeva, Q.Rajabov, X.Babadjanov, Z.Safarova va boshqalarning

dissertatsiya, ilmiy adabiyotlar hamda maqolalarida tahlil qilingan. Shu o'rinda qayd etish lozimki, Ikkinchi jahon urushida O'zbekiston xalqining front va front ortida ko'rsatgan jasorati, ishtiroki o'rganilgan bo'lsada, Namangan viloyati Xalq maorifining faoliyati alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot olib borish jarayonida tarixiy-qiyosiy, muammoli-xronologik, obyektivlik, tizimli tahlillar yordamida Ikkinchi jahon urushi davrida Namangan viloyati Xalq maorifi faoliyatining ijobiy va salbiy jihatlari matbuot, yangi manbalar va arxiv hujjatlari asosida tadqiq etildi.

TAXLIL VA NATIJALAR

Ma'lumotlarda keltirilishicha, 1941-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekiston SSRda 1 million 270 ming o'quvchi mavjud bo'lib, o'qituvchilar soni 34 ming kishini tashkil qilgan[1]. Binolar va o'qituvchilarning etishmasligi tufayli ko'pchilik maktablarda mashg'ulotlar 3 smenada olib borilgan[2]. Urush boshlaganidan keyin Xalq maorifi xodimlarining ko'pchiligi harakatdagi armiya safiga jalb etilgan bo'lib, ularning zimmasiga murakkab vazifalar yuklandi. Urush sharoitida ta'lim tizimida yuza kelgan moddiy tanqislik oqibatida respublikadagi maktablar soni 1942/1943-o'quv yilida 1940/1941-yildagiga nisbatan qisqarib, 4795 tadan 4374 taga tushib qoldi. Maktablarni o'zbek tilidagi darsliklar bilan ta'minlash masalasi ham muammoga aylangan edi. Chunki, 1940-yil may oyida O'zbekiston hukumatining lotin yozuvidan kirill alifbosiga o'tkazish to'g'risidagi qaroriga muvofiq 1941/1942-yillardagi darsliklarni yangi yozuv asosida nashr etish rejalashtirilgan edi. Shunday bir sharoitda O'zbekiston davlat-o'quv pedagogika nashriyoti 1941/1942-o'quv yilida maktablarni darslik va o'quv dasturlari bilan ta'minlash kabi muhim vazifani bajarishga kirishdi. Ushbu o'quv yilining boshlanishiga qadar reja bo'yicha 68 nomli (3 million 269 ming nusxa) kitob va 14 ta dastur chiqarilishi kerak edi. Nashriyot bu rejani 27-avgustgacha nom jihatidan 97.1 foizga, tiraj jihatidan 96.5 foizga (3 million 153 ming 400 nusxa) bajardi[3].

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, frontdagi jangchilar safini to'ldirish uchun yuboriladigan askarlarning to'la savodxon bo'lishi urush davrining muhim talablardan biri edi. Chunki, harbiy texnikalarini boshqarish, havo va kimyoviy hujumga qarshi mudofaaga hozirlanish har bir kishining to'la savodxon bo'lishini talab qilardi. Shuning uchun ham, harbiy xizmatga chaqiriluvchilarni harbiy buyruqlar va texnikalar uchun asosiy til bo'lgan rus tili hamda kirill alifbosini o'rgatish eng muhim vazifalardan biriga aylandi. Bunda ta'lim tizimi xodimlari katta hajmdagi ishni bajardilar.

O'zbekiston SSR XKSning 1942-yil 24-avgustdagi "Millati o'zbek fuqarolarning rus tilini 90 soatlik dastur miqdorida majburiy o'rganishi to'g'risida"gi hamda uning asosida O'zbekiston SSR Oliy Soveti Namangan viloyati tashkilot qo'mitasining 1942-yil 11-dekabrda qabul qilingan "Umumta'lim o'tayotgan o'zbek millatiga mansub fuqarolarni rus tilini majburiy o'rganishlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Qarorga asosan o'zbek millatiga mansub, birinchi navbatda 1925 yilda tug'ilgan, rus tilini bilmaydigan, umumta'lim batalyonlarida bo'lgan barcha fuqarolar 90 soatlik rus tilini o'rganish kurslarini o'tashlari majburiy qilib belgilandi[4].

O'sha davrda savodsizlikni tugatish kampaniyasiga tortilgan maktablar oldiga yangi alifboni o'qitishga asosiy e'tibor qaratish, bunda ayniqsa, chaqiruv yoshidagi fuqarolarni to'liq qamrab olish vazifasi qo'yildi. Aholiga yangi joriy etilgan kirill alifbosini o'rgatish uchun respublikada, xususan, Namangan viloyatida ham maxsus kurslar tashkil etilib, ular "savodsizlikni tugatish" kurslari nomini oldi. O'zbekiston KP(b) Markaziy Komiteti va O'zbekiston SSR Xalq Komissarlar Sovetining respublikada savodsizlikni tugatish yuzasidan chiqargan 1940-yil 10-dekabrda qarori aholi orasida kirill alifbosi va rus tilini o'rgatish borasida asosiy rolni o'ynadi. Ushbu qarorning ijrosini ta'minlanish uchun Namangan viloyatida savodsizlikni tugatish maktablariga 7066 kishi jalb etildi. Savodsizlikni tugatish maktablari bitiruvchilarini sinovdan o'tkazish maqsadida 5 kishilik komissiya ham tuzildi[5]. Dastlab savodsizlikni tugatish maktablariga tortilgan 7066 kishi sinovdan o'tkazildi. Sinov natijasiga maxsus kurslardan 3511 kishi qoniqarli o'tgan bo'lsa, 2163 kishi o'qish va yozishda kamchiliklari bo'lganligi uchun "chala savod"ga ega deya, o'qishni o'zlashtirilmagan 1392 kishi esa savodsizlar sifatida tasniflandi[6].

Shuni alohida qayd etish joizki, viloyatda savodsizlikni bartaraf etish borasidagi ishlar qoniqarli darajada emasdi. Jumladan, ro'yxatga olingan 87358 nafar savodsiz aholining 55 ming nafari, ya'ni 62,9 foizi ta'lim muassasalariga qamrab olingan bo'lsa, atigi 30485 nafari yoki ro'yxatga olinganlarning 34,9 foizi maktabni tamomlagan. Ayniqsa, Yangiqo'rg'on tumanida bu masala yuzasidan qator uzilishlar bo'lib, ro'yxatga olingan 6676 nafar aholining 3425 nafari yoki 51,3 foizi ta'lim bilan qamrab olingan, maktabga qatnashish atigi 10 foizni tashkil etgan. Chust shahrida esa

TARIX

ro'yxatga olingan 1479 nafar savodsiz aholidan 345 nafari yoki 23,3 foizi o'qigan xolos[7]. "Savodsizlikni tugatish" borasida yuzaga kelgan bunday kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida hukumat tomonidan tegishli chora-tadbirlar o'tkazilib, 1941-yil 1-iyungacha maktabni bitirilmay qolganlarga, ayniqsa 18 yoshdan 25 yoshgacha bo'lganlarning o'qishiga e'tibor berish va maktabni tamomlashlarini jadallashtirish, savodsizlikni tugatish maktablarining o'qituvchilariga metodik yordamni kuchaytirish va nihoyat, maktablarni bino, stol, stul, darslik hamda yoqilg'i bilan to'la ta'minlash masalalarining echimini topishga e'tibor kuchaytirildi. Dars mashg'ulotlarini xo'jalik ishlari bilan paralel ravishda, bir-biriga halaqit bermagan holda olib borishga ahamiyat berilib, buning natijasida 1941/1942-o'quv yilining birinchi yarmida Namangan viloyatida savodsizlikni tugatish maktablariga jami 26 ming 800 kishi o'rniga 30 ming 500 kishi, Farg'ona viloyatida esa 32 ming 900 kishi o'rniga 37 ming 900 kishi jalb etildi[8]. Bunday natijalarga erishishda maktab o'qituvchilari katta hissa qo'shdilar. Masalan, Namangan shahrining 3-maktab o'qituvchisi I.Antonov, 23-maktab o'qituvchisi M.Raximov, Namangan viloyati Pop va To'raqo'rg'on tumanlarining maktab o'qituvchilari jonbozlik ko'rsatdilar[9].

Bu davrda savodsizlikni oldini olish maqsadida viloyatlarda to'liqsiz o'rta maktablar sonini ko'paytirilishi o'z-o'zidan ta'lim muassasalarining o'qituvchi kadrlar bilan ta'minlashda qiyinchiliklarni yuzaga chiqardi. Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, urushning o'rtalariga kelib Namangan viloyati maktablari uchun 600 nafar o'qituvchi o'rniga, 200 nafarga yaqin o'qituvchilar tayyorlangan xolos[10]. Viloyat maorif bo'limining axborotiga qaraganda, viloyat bo'yicha yuqori sinflar uchun 280 taga yaqin o'qituvchi etishmagan[11]. Sababi, ko'plab o'qituvchilar frontga, front ortidagi mehnatga, zavod va fabrikalarga ishga jalb qilinganlar. Bu esa shundoq ham dolzarb bo'lgan o'qituvchi kadrlarga ehtiyojni yanada ortishiga olib keldi. Hukumat ushbu muammoni bartaraf etish uchun qisqa kurslarni tashkil etishni yo'lga qo'ydi.

O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Namangan viloyati bo'yicha tashkiliy qo'mitasining 1942-yil 14-dekabrda 527-sonli qaroriga ko'ra, Namangan viloyatida 5-7-sinflar uchun 4 oylik o'qituvchilar malakasini oshirish kurslarini tashkil etishga kirishildi. O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Sovetining shu yili 26-iyundagi 900-sonli qaroriga asosan, o'qituvchilarning armiya safiga ketishi munosabati bilan vujudga kelgan Namangan viloyatidagi to'liqsiz o'rta va o'rta maktablar uchun pedagogik kadrlar etishmovchiligi muammosini hisobga olgan holda 5-7-sinf o'qituvchilari uchun 4 oylik malaka oshirish kurslari ochishga ruxsat berildi. Bu kurslarga har bir tumandan 30 nafardan, jami viloyat bo'yicha 10 ta guruhda 300 nafar tinglovchi qabul qilindi. Kurslarga qabul qilish jarayonida umumta'lim maktablarining 9-10-sinflarini tugatgan ayollar, shuningdek, imkoni boricha urush nogironlari ham jalb etilgan. Tuman ijroiya qo'mitalari raislariga kurslarda tahsil olayotganlar uchun kolxozlar kengashlari orqali oziq-ovqat ajratish yuklatildi. Viloyatdagi kurslarning harajatlari uchun 220 ming rubl miqdorida mablag' ajratilgan bo'lib, shundan ish haqi uchun 81 ming rubl, stipendiya uchun 120 ming rubl ajratilgan, qolgan qismi esa ma'muriy, maishiy va boshqa harajatlardan iborat bo'lgan[12]. Qarorning ijrosini ta'minlash O'zbekiston SSR Oliy Kengashining Namangan viloyati bo'yicha tashkiliy qo'mitasi raisi Sattarov va O'zbekiston SSR Oliy Kengashining Namangan viloyati bo'yicha tashkiliy qo'mitasi kotibi Obidxo'jayevlar nazoratga oldilar. Statistik ma'lumotlarda ko'rsatilishicha, 1943-yilga qadar qisqa kurslarda respublika bo'yicha 16 ming o'qituvchi kadrlar tayyorlandi[13].

Shu o'rinda alohida qayd etish kerakki, bu davrda maktablar harbiy ta'lim berish markazlariga ham aylandi. Maktablarda bitiruvchi sinflariga harbiy bilim berish yo'lga qo'yildi. 1943/1944-o'quv yilidan O'zbekiston maktablarini harbiy o'qituvchilar bilan ta'minlanishi haqidagi qaroriga ko'ra, viloyat maktablarida harbiy kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

Harbiy kadrlar tayyorlash uchun ajratilgan maktablar soni jihatdan Namangan viloyati Farg'ona vodiysi kesimida oxirgi o'rinda turibdi, ya'ni 316 ta maktabni o'z ichiga olgan[14].

O'zbekiston KP(b) Markaziy Komiteti va Xalq Komissarlari Sovetining "Maktab ishlarini yaxshilash hamda xalq maorifi ishiga partiya va sovet tashkilotlarining rahbarligini kuchaytirish choralari to'g'risida"gi qarori qabul qilinib, qarorning amaliyotga joriy etilishi partiya va sovet organlarining maktab ishiga aralashishiga qulay imkoniyat yaratdi. Endilikda maktablarni ommaviy ravishda tekshirish, favqulodda komissiyalar yuborish amaliyoti keng tarqaldi. Bu bir tomondan, xalq maorifiga salbiy ta'sir o'tkazgan bo'lsa, ayrim hollarda qaror asosida o'tkazilgan ma'muriy va moliyaviy taftish ishlari ajratilgan mablag'larning to'g'ri sarflanishi, yangi maktablar qurishlashini nazorat qilishga xizmat qilgan edi.

Namangan viloyatida 1942/1943-o'quv yili rejasiga ko'ra, 326 ta maktab ochilishi nazarda tutilgan bo'lib, shundan 16 tasi boshlang'ich maktab, 114 tasi to'liq bo'lmagan o'rta maktab, 48 tasi o'rta maktablar edi[15]. Oldinda umumta'lim maktablariga o'quvchilarni jalb qilish muammosi turar edi. 1942/1943-o'quv yilida boshlang'ich sinflarga 69935 kishi qabul qilinishi kerak bo'lsa, amalda 56245 kishi o'qitilgan. To'liq bo'lmagan o'rta maktabda esa, 30640 nafar o'rniga, 28837 nafar o'quvchi qamrab olindi. Umumta'lim maktablariga esa, 4288 nafar o'quvchi qabul qilinishi rejalashtirilgan bo'lib, amalda ularning 2816 nafarigina qamrab olingan, xolos.

Bu davrda o'rta ta'lim tizimidagi muammolar qatorida ayrim insonlarning maktabda o'qishni xohlamaslik holatlari ham uchrab turgan. Masalan, 1942/1943-o'quv yilida birgina Namangan viloyatining maktablaridan 11899 o'quvchi o'qishni tashlab ketgan[16].

XULOSA

Urush yillarida boshqa sohalarda bo'lgani kabi xalq ta'limi tizimi resurslari ham to'liq frontga qaratildi. Bu jarayonda Namangan viloyati xalq ta'limi boshqarmasi urush yillarida frontga askar etkazib berishda 10 minglab odamlarga rus tilini o'rgatdi. Bu askarlarni frontda buyruqlarni to'liq tushunib, sifatli bajarishlarida muhim ahamiyat kasb etdi. Maktab o'qutuvchilari va o'quvchilari front ortida ham oldingi saflarda turib, front uchun mahsulot etkazib berish ishida katta hajmdagi ishni bajardilar. Unumdor erga ega bo'lgan Namangan viloyatida ham deyarli barcha maktablar uchun er maydonlari ajratilib, unda qishloq xo'jalik mahsulotlari etishtirish yo'lga qo'yildi.

Urush butun respublikadagi, jumladan, Namangan viloyati ta'lim tizimiga juda katta ziyon ham keltirdi. Aslida ta'lim olishi kerak bo'lgan ko'plab yuqori sinf o'quvchilari maktablarni tashlab keta boshladi. Jumladan, birgina 1942/1943-o'quv yilida 12 mingga yaqin yuqori sinf o'quvchilari maktablarni tashlab ketishga va tirikchilik uchun turli og'ir ishlarda ishlashga majbur bo'lganlar. Ularning ijtimoiy holati esa juda ayanchli ahvolga tushib qolgan edi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Қизил Ўзбекистон. 1941 йил 4 январь.
2. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Иккинчи китоб 1939-1991 йиллар. Масъул муҳаррирлар: Р. Абдуллаев, М. Раҳимов, Қ. Ражабов. – Тошкент: O'zbekiston, 2019. – Б. 223.
3. Қизил Ўзбекистон. 1941 йил 31 август
4. O'zMA, P-837-jamg'arma, 32-ro'yxat, 3477-ish, 150-varaq.
5. O'zMA, P-94- jamg'arma, 5- ro'yxat, 4125-ish, 18-varaq.
6. O'zMA, P-94- jamg'arma, ro'yxat, 4125-ish, 19-varaq.
7. O'zMA, P-837- jamg'arma, 32- ro'yxat, 3474-ish, 20-varaq.
8. Қизил Ўзбекистон. 1941 йил 31 октябрь.
9. Қизил Ўзбекистон. 1941 йил 31 октябрь.
10. O' P-94-jamg'arma, 5-ro'yxat, 4222a-ish, 137-varaq.
11. Сталин ҳақиқати. 1944 йил 27 сентябрь.
12. O'zMA, P-837- jamg'arma, 32-ro'yxat, 3474-ish, 21-varaq.
13. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. Uchinchi kitob. – Toshkent: "Sharq", 2010. – B.350.
14. O'zMA, R-94-jamg'arma, 5-ro'yxat, 4460-ish, 7-varaq.
15. O'zMA, R-94-jamg'arma, 5-ro'yxat, 4401-ish, 98-varaq.
16. O'zMA, R-94-jamg'arma, 5-ro'yxat, 4404-ish, 99-varaq.
17. O'zMA, R-94-jamg'arma, 5-ro'yxat, 4401-ish, 100-varaq.